



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

¹Islikov Sayid Xalilovich

Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi,

²Rahmanov Valijon Turdaliyevich

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi,

³Axmedova Iroda Baxrom Qizi

Guliston davlat universiteti talabasi,

⁴Abdumo'minova Sharofat Abdukamol Qizi

Guliston davlat universiteti talabasi.

ARTICLE INFO

Received: 13th May 2023

Accepted: 19th May 2023

Online: 20th May 2023

KEY WORDS

Ta'lim, darslik, o'quv qo'llanma, didaktik material, ta'lim texnologiyasi.

ABSTRACT

Hozirgi kunda oliy ta'lim tizimida informatika va axborot texnologiyalari fanlarini o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining qo'llanilishi bilan o'quv metodik materiallari ham ikki turga bo'linadi. Bular an'anaviy va yangi avlod o'quv-metodik materiallar majmuasidir. Ushbu maqolad informatika va axborot texnologiyalari fanlarini o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish muammolari tadqiq qilingan.

An'anaviy o'quv-metodik materiallariga ta'lim tizimida qo'llanib kelinayotgan darsliklar, o'quv qo'llanmalari, metodik ko'rsatmalar, didaktik tarqatma va ko'rgazmali materiallar kiradi.

Yangi o'quv metodik materiallarga an'anaviy materiallardan tashqari elektron nashrlar, elektron darsliklar, elektron plakatlari, elektron lug'atlar zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyaga asoslangan metodika, interfaol usullar yordamida yaratilgan o'quv materiallari, multimedia vositalari, internet olingan ma'lumotlari va boshqa tasviriy-vizual vositalarni kiritish mumkin. Ayni paytda an'anaviy o'quv-metodik materiallari majmuasining ahamiyati kamaymagan holda, yangi avlod o'quv materiallar majmuasiga ehtiyoj oshib bormoqda.

Ko'p yillar o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, an'anaviy dars o'tish ta'limning asosiy modellardan biri bo'lib qolmoqda. An'anaviy dars muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim modelidir [2], [4], [12].

Biz o'qituvchilardan davr bilan birga qadam tashlaydigan, har tomonlama etuk shaxslarni tarbiyalash talab etilayotgan bir paytda zamon talabini to'g'ri anglab etadigan jamiyatning faol a'zolarini tarbiyalab etishtirmog'imiz lozim. Olib borilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman o'quvchilar intilishini faollashtiradigan (interfaol) usullar bilan boyitish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan o'z o'rnida foydalanish natijasida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi oshganligi aniqlandi. Buning uchun dars jarayonini oqilona tashkil etilishi o'qituvchi



tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishini ta'minlaydi.

Shuningdek o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda bahs-munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot rolli o'yinlari, o'quvchilarni amaliy mashg'ulotlarni mustaqil bajarilishiga undash, charxpalak, blits so'rov, rez'yume, fsmu va boshqa texnologiyalardan, shuningdek, rang-barang baholash usullaridan foydalanish, ta'lim vositalaridan joyida va vaqtida foydalanish talab etiladi.

Hozirgi vaqtda oliy o'quv yortlarida o'qitishning zamonaviy shakllari va metodlari keng qo'llanilmoqda. An'anaviy o'qitish jarayonida o'qituvchi asosan, avtoritarlik bilan dars olib borsa (sub'ekt-ob'ekt), interfaol usullar yordamida o'qitish jarayonida esa o'quvchi shaxsiga erkinlik berish, munosabatlarni demokratlashtirish (sub'ekt-sub'ekt) asosida dars jarayoni tashkil etishni nazarda tutadi.

Informatika va axborot texnologiyalari fanlarini o'qitish o'ziga xos xususiyatlariga ega. Fanning o'quv mashg'ulotlarining samarali tashkil etishda asosan, ta'lim oluvchilarning faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan pedagogik texnologiya, o'qitish jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishga asoslangan pedagogik texnologiyalardan ko'proq foydalaniladi. Misol sifatida, o'yinli texnologiya, «Charxpalak», «Bumerang», «3x3», «Rez'yume», «FSMU» kabi texnologiyalarni keltirishimiz mumkin. Bu texnologiyalardan ko'pincha darsni mustahkamlash va baholash jarayonida foydalaniladi.[1], [5], [7], [10]

Informatika va axborot texnologiyalari fanlaridan olib boriladigan darslarning interfaol usullarda o'tilishi, oddiy darslardan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

1. Qo'yilgan maqsadga aniq erishish.
2. Yangi bilimlarni berishda yangi usullardan foydalanish.
3. Vaqtning taqsimlanishi.
4. Dars bosqichlaridagi o'rin almashinishlar.
5. Dastur materialini asosida qisman chetga chiqish.
6. Ta'limning texnik va dasturiy vositalardan foydalanish.[2], [3] [16]

O'qitishning interfaol usullaridan qaysi vaqtda foydalanish, qaysi mavzularda qanday interfaol usullarni qo'llash, qanday qilib tashkil etish, qaysi interfaol usullar iqtisodiyot darslarida ko'proq ijobiy natija berishini o'qituvchi bilishi kerak.

References:

1. Khalilovich, I. S. (2022). General Objectives of Teaching Students Using Modern Methods in Pedagogy. The Peerian Journal, 13, 60-63.
2. Halilovich, I. S. (2022). ZAMONAVIY TA'LIMDA MEDIYA TA'LIMNING AHAMIYATI.
3. Allayorov A.I., Islikov S.H., & Turdikulova B.T. (2021). XXI CENTURY - THE CENTURY OF INTELLECTUAL YOUTH. Экономика и социум, (2-1 (81)), 56-62.
4. Saidov, J. D., Qudratov, A. N., Islikov, S. X., Normatova, M. N., & Monasipova, R. F. (2023). Problems of Competency Approach in Developing Students' Creativity Qualities for Creating a Database. Journal of Higher Education Theory & Practice, 23(1).
5. Ergashev, B. B., Saidov, J. D. O., & Islikov, S. X. (2021). BO'LAJAK INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI O' QITUVCHILARI KASBIY KOMPETENTLIGINI



SHAKLLANTIRISH VOSITALARI VA METODLARI. Academic research in educational sciences, 2(2), 1139-1146.

6. Rahmanov, V., & Alijonov, J. (2022). QUYOSH HAVO ISITISH KOLLEKTORINI O'ZBEKISTON SHAROITIDA KENG FOYDALANISH. Science and innovation, 1(A7), 835-838.

7. V. Rahmanov, & J. Alijonov (2022). INOVATSION SHAMOL TURBINASI. Science and innovation, 1 (A8), 136-140. doi: 10.5281/zenodo.7342845

8. Rahmanov, V. (2023). OLIY O'QUV YURTLARIDA FIZIKA YO'NALISH TALABALARIGA MOLEKULAR FIZIKA BO' LIMINING "TERMODINAMIKANING II-QONUNI (ENTROPIYANING) IZOJARAYONLARGA TADBIQI MAVZUSINI O'QITISHDA KREATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5), 10-16.

9. Rahmanov Valijon Turdaliyevich. (2023). WAYS TO SHAPE THE PRINCIPLES OF HEURISTICS AND CREATIVITY IN READERS IN THE STUDY OF THE TOPIC OF TRANSITION FROM A GASEOUS STATE TO A LIQUID STATE AND METHODS OF LIQUEFACTION OF GASES. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7883323>

10. Rahmanov V.T Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizik namoyish tajribalari, uning vazifalari va tizimi - Scientific Bulletin of NamSU - Nauchniy vestnik - NamDU Ilmiy Axborotnomasi - 2022_1-son 699 p.

11. Rahmanov, V. ., Pardayeva, E. ., Ulashov, F. ., & Daminov , S. . (2023). OLIY TA'LIMDA FIZIKA FANIDAN MOS HOLAT TENGLAMASINI MAVZUSINI O'TISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK- TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DARS TASHKIL QILISH. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5), 147-150. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejti/article/view/14855>

12. Rahmanov , V. ., & Pardayeva , E. . (2023). OLIY O'QUV YURTLARIDA FIZIKA YO'NALISH TALABALARIGA MOLEKULAR FIZIKA BO' LIMINING "TERMODINAMIKANING II-QONUNI (ENTROPIYANING) IZOJARAYONLARGA TADBIQI MAVZUSINI O'QITISHDA KREATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5), 10-16. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejti/article/view/13693>

13. Саидов, Ж. Д. Ў. (2022). КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД ПРИ ОБУЧЕНИИ РАБОТЕ С БАЗАМИ ДАННЫХ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ. Проблемы современного образования, (6), 253-265.

14. O'G'li, S. J. D. (2022). TA'LIM OLUVCHILARNING MA'LUMOTLAR BAZASI FANIGA BO' LGAN QIZIQISHLARINI KOMPETENSIYALIY YONDASHUVLAR ASOSIDA OSHIRISH MUAMMOLARI. Science and innovation, 1(B3), 89-93.

15. Saidov, J. D. (2021). Study of the process of database and creation in higher education. In International scientific and practice conference on" International experience in increasing the effectiveness of distance education: problems and solutions". Guliston.

16. Jasur Doniyor, O. G., Saidov, L., Allayorov, S. P., OMBORINI, S., & BAHOLASH, Y. M. Scientific progress. 2021.Nº 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ma-lumotlar-omborini-yaratish-bo-yicha-kasbiy-kompetentligini-baholash-mezonlari> (дата обращения: 02.06. 2022).

17. Jasur Doniyor, O. G., Saidov, L., Allayorov, S. P., OMBORINI, S. X. I. M. L., & BAHOLASH, Y. B. Y. K. K. MEZONLARI//Scientific progress. 2021. Nº 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mezonlari>



e/n/ma-lumotl ar-omborini-yarati sh-bo-yicha-kasbiy-kompetentligini-baholash-mezonlari
(дата обращения: 02.06. 2022).